

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2019 yilning yanvar oyida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
153,3 mlrd. so`m

Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi – **16,0 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
– **55,0 %**

Norasmiy sektor
ulushi – **29,0 %**

Qoraqalpog'istonda qurilish faoliyati investisiya kiritilishining jozibador yo'nalishlaridan biri va iqtisodiyotining ahamiyatli tarmog'i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar oyida Respublikada jami 153,3 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 100,8 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 25,0 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,0 %ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 121,7 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari qurilish ishlari hajmining 55,0 %i yoki 84,2 mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 113,9 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 29,0 % yoki 44,1 mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 76,8 %ni tashkil etdi.


Yirik pudrat tashkilotlari

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar


Norasmiy sektor



Ótgan yilning shu davriga nisbatan % da



Jami hajmga nisbatan ulushi %



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 67,0 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 5,8 % punktga ko'paydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 11,0 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 22,0 % to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,9 % punktga kamaydi.




Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

mIrd.sóm



Qurilish ishlarining faoliyat turlari bóyicha tarkibi




2019-yil yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bino va inshootlar qurilishi ulushi 67,0 foizni, fuqarolik ob'ektlari qurilishi 22,0 foizni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 11,0 foizni tashkil etadi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan korsatkichlar tahlil qilinganda bino va inshootlar qurilishi 5,8 foizga ko'paygan, fuqarolik ob'ektlari qurilishi 1,1 foizga oshgan, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari esa 6,9 foizga kamaygan.

2019- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari tumanlar kesimida


Tumanlar	mlrd.sóm	Ósish sur'ati
Qoraqalpog'iston Respublikasi	153,3	100,8
Nukus sh.	59,2	103,0
Amudaryo	9,5	96,1
Beruniy	8,2	95,5
Qoraózak	4,1	99,9
Kegayli	2,6	90,8
Qóngirot	25,5	107,5
Qonlikól	3,4	91,4
Móynoq	0,9	79,0
Nukus tumani	4,5	78,1
Taxiatosh	5,6	112,6
Taxtakópir	2,0	110,0
Tórtkul	9,5	103,0
Xójayli	4,9	92,3
Chimboy	2,7	87,0
Shumanoy	1,5	85,9
Ellikqal'a	9,1	106,1

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari




Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 149,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 97,2 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 foiz punktga oshdi.


Yanvar oyi uchun qurilish ishlari turlari



- Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish
- kapital, joriy taʼmirlash va boshqa pudrat ishlari




2019- yil yanvar oyi uchun qurilish ishlari




Hisobot davrida bajarilgan qurilish ishlarining yo`qori o`shish sur`ati Taxiato'sh tumani (112,6 %), Qo'ng'iro't (107,5 %), Taxtakopir (110,0 %) , Ellikkal'a (106,1 %), va To'rtkul (103,0 %) tumanlarida kuzatiladi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % dagi ulushi




2019-yil

Yanvar oyi uchun qurilish ishlari jamiga nisbatan %dagi ulushi



2018-yil



Bajarilgan qurilish ishlarining yuqori ulushi kichik korxonalar va mikrofirmalar-54,1 foizi joriy yil yanvar oyiga, 47,6 foizi esa 2018 yil yanvar oyi uchun to'g'ri kelmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova
(0361) 222-75-91